



UY XO'JALIKLARINING DAROMADLARI VA XARAJATLARIGA SOLIQLARNING TA'SIRI

Xojiyev Jaxongir Dushabayevich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Annotasiya. Respublikamiz iqtisodiyotini barqaror rivojlanishida milliy daromadning izchil o'sishi uy xo'jaligi shaxsiy tasarrufidagi daromadlarining ortishini ta'minlasa-da, ushbu daromadlarni ijtimoiy-adolat prinsiplari asosida taqsimlash orqali daromadlar tengsizligi holatining oldini olishning moliyaviy mexanizmlariga ehtiyoj sezadi.

Kalit so'zlar: aholi daromadlari, soliq tizimi, vertikal va gorizontaal tenglik, soliq rejimi, daromadlarning nafliligi, marjinal naflilik, daromad tengsizligi, daromad intervali, daromad solig'i, progressiv soliqqa tortish tizimi.

ВЛИЯНИЕ НАЛОГОВ НА ДОХОДЫ И РАСХОДЫ ДОМОХОЗЯЙСТВ

Xojiev Jaxongir Duшабаевич
Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация. Несмотря на устойчивое развитие экономики нашей республики, что приводит к последовательному росту национального дохода и увеличению доходов домохозяйств, существует потребность в финансовых механизмах, направленных на сокращение неравенства доходов путем соблюдения принципов социальной справедливости.

Ключевые слова: доходы населения, налоговая система, вертикальное и горизонтальное равенство, налоговый режим, полезность дохода, предельная полезность, неравенство доходов, интервал доходов, подоходный налог, прогрессивная система налогообложения.

THE IMPACT OF TAXES ON HOUSEHOLD INCOME AND EXPENDITURE

Khojiev Jakhongir Dushabaevich
Tashkent State University of Economics

Abstract. Despite the steady development of the economy of our republic, which leads to a consistent increase in national income and an increase in household incomes, there is a need for financial mechanisms aimed at reducing income inequality by observing the principles of social justice.

Key words: personal income, tax system, vertical and horizontal equality, tax regime, utility of income, marginal utility, income inequality, income interval, income tax, progressive taxation system.

Kirish.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biri uy xo'jaliklari moliyasida, aholining real daromadlarini izchil oshirish va ularning ijtimoiy qatlamlaridagi daromadlar tengsizligini kamaytirish hisoblanadi. Mamlakatimizda iqtisodiyotni innovasion rivojlantirishga yo'naltirilgan islohotlar barqaror o'rta aholi qatlamining shakllanishi, aholining turmush farovonligi oshirilishi, iste'mol budjetining sifat va miqdor jihatidan yaxshilanishiga olib keladi. Aholining keng ijtimoiy qatlami daromadlari va xarajatlari balansining ta'minlanishi va real shaxsiy tasarrufidagi daromadlar ko'lamining kengayishi mamlakatdagi kambag'allik darajasining pasayishi va iste'mol budjetidan ortiqcha jamg'armalar hisobiga mamlakatning investision salohiyatini yanada oshishiga ta'sir etadi. Uy xo'jaligida aholi daromadlarini tartibga solish mexanizmida pirovard maqsad aholining barcha qatlamlari turmush farovonligining maksimal darajasini ta'minlash hisoblanadi.

Aholining turmush farovonligi moddiy negizini daromadlar tashkil qilsada, ushbu daromadlar hisobiga iste'mol va jamg'arish fondlarining shakllanishi, iste'mol fondining sifat tarkibi turmush farovonlik yoki kambag'alikning asosiy mezonlarini tashkil qiladi. Shu nuqtai nazardan, aksariyat hollarda, soliq tizimining aholi daromadlariga ta'siri tadqiq qilinishi kuzatilgan, bizning fikrimizcha, soliq tizimini aholi turmush farovonligi va xususan, ularning daromadlari bilan parallel ravishda xarajatlariga ta'sirini kompleks tadqiq qilish maqsadga muvofiq.

Adabiyotlar sharhi.

Mamlakatimizda aholi daromadlarini izchil oshirish va uning ijtimoiy qatlamlari o'rtasidagi daromadlar tengsizligini tartibga solishning moliyaviy mexanizmi ilmiy-nazariy va amaliy asoslariga bag'ishlangan zamonaviy tadqiqotlar o'rganilgan.

Tsiddon va Galor va boshqalarning (2008) fikricha, daromad tengsizligi ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalari va texnologiyalar rivojlanishiga yordam beradi va bu iqtisodiy o'sishga olib keladi.

Marshallning (1993) bir Shilling pul birligining boy ijtimoiy qatlam aholi qatlamiga nisbatan kambag'alga keltiradigan baxt benihoya yuqori ekanligi haqidagi argumenti ham tasdiqlaydi.

Saez (2018) fikricha, iqtisodiy o'sish mamlakatning iqtisodiy barqarorlik o'lchovi sifatida keng qo'llaniladi va taraqqiyot va boshqa hodisalarning iqtisodiy o'sishga ta'siri makroiqtisodiyotning muhim muammosidir. O'tgan bir necha o'n yilliklar ichida daromad tengsizligi dunyo bo'ylab sezilarli darajada ortib bormoqda.

Siyosatchilar tomonidan inqirozlar davrida ijobiy natijalarga erishish uchun daromadlar tengsizligining iqtisodiy o'sishga ta'sirini baholashga katta qiziqish bildirilgan (Piketty and Goldhammer, 2015).

Shunga qaramay, daromadlar tengsizligi iqtisodiy o'sishga ta'sir ko'rsatadigan kanallarni tushuntirishda turli munozaralar noaniq prognozlar bilan ko'plab nazariyalarning paydo bo'lishiga olib kelgan. Masalan, Perotti (1994), Alesina va boshqalarning (2020) ta'kidlashicha, aholi daromadlari tengsizligi hukumatlar tomonidan qayta taqsimlash siyosati va aholining boy qatlami uchun yuqori daromad solig'i orqali kiritilgan nomutanosibliklar tufayli iqtisodiy o'sishga salbiy ta'sir qiladi.

Acemoglu fikricha esa davlat byurokratiyasi va samarasiz institutlari iqtisodiy o'sishga ta'sir qiladi va bu muammo daromadlar tengsizligini oshirish orqali kuchayadi (Acemoglu, 2007). Bundan tashqari Galor, Zang, Aghion va boshqalarning ta'kidlashicha, aholi daromadlari tengsizligi iqtisodiy o'sishga salbiy ta'sir ko'rsatadi, nomukammal kapital bozorlari tufayli aholining kam ta'minlangan qatlamlari uchun ta'limga kirishga to'sqinlik qiladi va mamlakatda inson kapitalining shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shuningdek, daromadlar tengsizligi ijtimoiy muammolarning o'sishi tufayli siyosiy beqarorlikka olib keladi va shuning uchun iqtisodiy o'sishga salbiy ta'sir ko'rsatadi, chunki investisiyalar uchun rag'batlantirishlar bo'lmaydi. Biroq boshqa iqtisodchi olimlarning fikricha, daromadlar tengsizligi o'sishga hissa qo'shadi, chunki u aholining boy qatlamlarida jamg'arishni oshiradi va bu yirik hajmdagi investisiyalarni amalga oshirishni ta'minlaydi.

Iqtisodchi Agzamov (2019) O'zbekistonda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining progressiv modelidan tekis shkalaga asoslangan modeliga o'tish bilan bog'liq islohotlarga to'xtalib ta'kidlaganidek, "Daromad solig'ini hisoblash uchun soliq bazasiga nisbatan o'llaniladigan progressiv soliq stavkalarining 2 va 3 shkalalari bo'yicha minimal ish haqining asos qilib olinishi ularning ortishi hisobiga soliq to'lovlarining miqdor jihatidan ko'payib borishiga olib keladi".

Tadqiqot metodologiyasi.

O'zbekiston Respublikasining "Aholi bandligi to'g'risida"gi 2020 yil 20 oktabrdagi O'RQ-642 son Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60 son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston Taraqqiyot Strategiyasi to'g'risida"gi, 2019 yil 14 maydagi PF-5718-son "Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash va himoya qilish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "2020 yil 29 avgustdagi "2020-2022 yillarda iqtisodiy o'sishni tiklash va iqtisodiyot tarmoqlari hamda soxalari tizimli tarkibiy islohotlarni davom ettirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 529-sonli Qarori hamda mazkur faoliyatga doir boshqa me'yyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish tahlil qilingan⁴¹.

⁴¹ <https://lex.uz/docs/4674902>

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Aholi daromadlari darajasini tahlil qilish, o'lchash va baholash uchun daromadlarning har xil turlari va statistik ko'rsatkichlar qo'llaniladi. Biz ularning eng keng tarqalgan turlarini ko'rib chiqamiz.

1-jadval**Aholi daromadlari guruhleri va ularning elementlari**

| № | Daromadlar guruhi | Daromad manbai |
|----------|---|--|
| 1 | Ish haqi | Asosiy ishdan olingan daromad; Asosiy bo'lmagan ishdan olingan daromad; Harbiy xizmatchilarning mablag'lari; Mavsumiy daromad; Boshqalar |
| 2 | Mehnat natijalarini sotishdan olingan daromadlar | Fermer xo'jaligi daromadlari; Shaxsiy mulkdan olingan daromadlar; Uy xo'jaligi daromadlari; Haq; Boshqalar |
| 3 | Tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromadlar | Tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromadlar; Boshqalar |
| 4 | Kapitalning daromadligi | Aktsiyalardan dividendlar; Ijara; Kapital daromadi; Depozitlar bo'yicha foizlar; Boshqalar |
| 5 | Riskdan daromad | Sug'urta tavakkalchiligini to'lash; Obligatsiyalar bo'yicha avanslar; Lotereya yutuqlari; Sport musobaqalarida erishilgan yutuqlar; O'yinlardagi yutuqlar; Turli musobaqalardagi yutuqlar; Boshqalar |
| 6 | Kechiktirilgan daromad | meros; Sovg'a; Homiylik yordami; aliment; Muallifning merosxo'rlariga qoldirilgan daromadlar; Boshqalar |
| 7 | Ijtimoiy daromad | Vaqtinchalik nogironlik uchun to'lov; Homiladorlik va tug'ruqdan keyingi to'lov; Tug'ilganlik uchun to'lov; nogironlik nafaqalari; Boshqalar |
| 8 | Qarz daromadi | Bank kreditlari; Korxonalar kreditlari; Jismoniy shaxslardan olingan qarz summalari; Boshqalar |
| 9 | Boshqa daromad | Boshqalar |

Yuqoridagi jadvalda, aholi daromadlarining bir qismi moddiy farovonlikni ta'minlashga, qolgan qismi esa xizmatlardan foydalanishga sarflanishini ko'rishimiz mumkin. Ehtiyojlar tarkibiga nafaqat pul daromadlarining ko'payishi, balki aholi tarkibining o'zgarishi, uning ilmiy va madaniy darajasining o'sishi ham ta'sir qiladi. Iqtisodiy adabiyotlarda aholi daromadlari foydalanish darajasiga qarab nominal, ixtiyoriy va real daromadlarga bo'linadi. Nominal daromad soliqlar va narxlarni hisobga olmagan holda pul daromadlari miqdorini tavsiflaydi. Ixtiyoriy daromad soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar chegirib tashlanganidan keyin nominal daromad hisoblanadi. Shaxsiy va oilaviy daromadlarni shakllantirishda shaxsiy uy xo'jaligi muhim rol o'ynaydi. Jamiyat taraqqiyotining murakkab ijtimoiy-iqtisodiy davrida xususiy xo'jalik aholining ayrim guruhleri uchun asosiy daromad manbai bo'lib qolmoqda.

Oilaning umumiy daromadlarini tahlil qilishda quyidagi ko'rsatkichlar hisoblanadi: oziq-ovqat xarajatlari; nooziq-ovqat mahsulotlarini sotib olish xarajatlari; maishiy xizmatlar xarajatlari, soliqlar, yig'imlar, to'lovlar; naqd pul mablag'larining ko'payishi, jamg'arma kassalaridagi depozitlar, chorva mollari, parrandalar va jamg'armalarning boshqa tabiiy o'sishi. Shuningdek, ta'lim, tibbiy yordam va uy-joy uchun subsidiyalar, shuningdek qo'shilgan umumiy daromad miqdori hisoblab chiqiladi. Ushbu ko'rsatkichlar odatda xalqaro taqqoslashda qo'llaniladi.

Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish tizimini takomillashtirish orqali ularning real daromadlarini oshirish, daromadlar tengsizligini barqarorlashtirishning konseptual asoslari quyidagilardan iborat bo'lishi zarur:

1. Aholi daromadlarini soliqqa tortish tizimi ular faoliyatining ijtimoiy ahamiyatidan qat'iy nazar vertikal va gorizontal tenglik prinsiplarini ta'minlashga yo'naltirilishi lozim.


Ma'lumki, zamonaviy iqtisodiy makonda mavjud optimal soliq tizimi bir xil daromadga ega bo'lgan yoki turli faoliyatdan daromadlarga asoslangan soliq to'lovchilar uchun ijtimoiy adolat prinsiplariga asoslangan soliq rejimini shakllantirish hisoblanadi. Ushbu soliq tizimi, avvalo, soliq to'lovchilar

tomonidan davlat byudjetiga soliq to'lovlarining to'lashdan ishtiyoqlarining iqtisodiy asosini tashkil qiladi. Ushbu jihatdan ko'rib chiqadigan bo'lsak, jismoniy shaxslarni soliqqa tortish tizimidagi yana bir muammolardan biri bir xil daromadga ega bo'lgan soliq to'lovchi jismoniy shaxslarga nisbatan bir xil yondashuvdagi soliq rejimining amal qilmasligini ifodalovchi gorizontol tengsizlikning mavjudligidir.

Xususan, soliq tizimi daromad darajasi bir xil bo'lgan soliq to'lovchilar kategoriyasi uchun muvozanatli soliq yukini ta'minlashi zarur. Bundan tashqari faoliyatning alohida turlariga qarab soliq stavkalarining tabaqalashtirilishi vertikal tengsizlik muammolarini keltirib chiqaradi.

Masalan, amaldagi Soliq kodeksiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi rezidentlari bo'lgan jismoniy shaxslarning daromadlariga 12 foizlik soliq stavkasi bo'yicha soliq solinishi belgilangan⁴². Shu bilan bir qatorda, dividendlar va soliq tarzidagi daromadlarga 5 foizlik stavka bo'yicha soliq solinishi belgilangan. Demak, aksiyadorlik jamiyatida ishlovchi va ma'lum darajada aksiyador hisoblangan soliq to'lovchi uchun daromadni dividend shaklida olish ma'lum fiskal afzalliklarni vujudga keltiradi. Garchi, ushbu soliq stavkalariga asoslangan soliqqa tortish rejimi moliyaviy tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirish uchun ishtiyoqni rag'batlantirsada, bizning fikrimizcha, dividendlar bo'yicha olinadigan daromadlarga ham soliq stavkasini bir xil, ya'ni 12 foiz darajada belgilanishi maqsadga muvofiq.

Shuningdek, turli darajadagi daromadlarga ega bo'lgan soliq to'lovchi jismoniy shaxslarga nisbatan bir xil soliq rejimining amal qilishi natijasida esa vertikal tengsizlikning vujudga kelishini kuzatishimiz mumkin (1-rasm).




1-rasm. Daromatlarni soliqqa tortish sohasida tenglik mezonlari (Ўринов, 2018)

Amaldagi daromadni soliqqa tortish tizimi tekis shkaladagi soliq stavkalariga asoslanib, ushbu soliqqa tortish tizimi daromadlarning marjinal nafililik mezonlariga javob bermaydi. Bu borada shuni alohida ta'kidlash joizki, 1.0 mln. so'm daromadning nafililigi ushbu daromadni tasarruf qiluvchi individlarning daromadlilik darajasiga bog'liqligini ta'kidlab o'tish joiz. Masalan, boy qatlam aholi uchun 1.0 mln. so'm daromadning nafililigi kambag'al individlardan past darajada bo'ladi. Daromadning ortib borishi uning umumiy nafililigini (TU) orttirsada, marjinal nafililikning (MU) tushib borishini ta'minlaydi.

2-rasmdan ko'rinib turganidek, jamiyatdagi shakllantirilgan daromadlar qanchalik muvozanatli taqsimlansa, birinchi navbatda, daromadlar darajasi degradasiyasi bo'yicha tafovutning qisqarishi orqali aholi ijtimoiy qalami o'rtasida marjinal va umumiy nafililik darajasi taqsimlanishini muvozanatlashtirish imkoniyatlariga ega bo'linadi. Jamiyatdagi ne'matlar qanchalik adolatli taqsimlanish darajasi ijtimoiy farovonlikning shakllanishiga ta'sir etadi.

Aholi daromadlari darajasining ma'lum stasionar nuqtasidagi (In-1) intervalda daromadlarning umumiy nafililigi (TU(I)) marjinal nafililikdan (MU(I)) kichik bo'ladi. Bunda daromadning iqtisodiy yoki ijtimoiy qadr-qimmati o'ta yuqori bo'lib, ushbu intervaldagi daromadlilik, asosan, kam ta'minlangan aholi qatlami uchun xosdir. Daromadlarning umumiy nafililigi (TU(I)) marjinal nafililikdan (MU(I)) katta bo'lgan interval (In+1) stasionar nuqtada ta'minlanib, ushbu intervaldagi daromadlar aholining boy ijtimoiy qatlamiga mansubdir. Mubolag'a tarzida aytganda, 50 mln. so'm oylik maosh olib ishlayotgan individga nisbatan 5 mln. so'm oylik olib ishlayotgan individ uchun 1 mln. so'mning qadr-qimmati o'ta yuqoridir.

⁴² <https://lex.uz/docs/4674902>



2-rasm. Aholi daromadliligi va uning o'zgarishining daromadlar umumiy va marjinal nafilligi o'zgarishiga ta'siri

2. Aholi daromadlarini tekis shkaladagi soliqqa tortish tizimi iste'mol tarkibi va jamg'arish normasiga makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash nuqtai nazardan pozitiv ta'sir etsada, aholi ijtimoiy qatlamlari o'rtasidagi daromadlar tengsizligini kuchaytirish riskini vujudga keltiradi.

Jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortish tizimining 3 asosiy shakllangan modeli mavjud bo'lib, O'zbekiston amaliyotida progressiv soliqqa tortish tizimidan tekis soliqqa tortish tizimi yoki proporsional soliqqa tortish tizimi amal qilmoqda. Ushbu soliqqa tortish amaliyotiga o'tishdan maqsad, avvalo, soliq ma'murchiligini takomillashtirish, soliq yukini qisqartirish orqali aholining shaxsiy tasarrufidagi daromadlarini oshirish, norasmiy daromadlarini legallashtirish orqali soliq bazasini oshirish hisobiga byudjetga tushumlarni ko'paytirish hisoblanadi.

Lekin tekis shkalaga asoslangan daromadlarni soliqqa tortish tizimi ish haqi va boshqa daromad manbalari bo'yicha aholi daromadlari darajasi bo'yicha tafovut mavjudligi sharoitida daromadlarni tartibga solish va ularni muvozanatlashtirish nuqtai nazardan progressiv soliqqa tortish tizimiga nisbatan samarasiz hisoblanadi.

Progressiv soliq stavkalari kesimida daromadlarning quyi intervallari bo'yicha soliq to'lovchilar sonining yuqori salmog'i nazarda tutilib, tekis shkalaga o'tish sharoitida (amaldagi soliqqa tortish tizimi) belgilangan 12 foizlik soliq stavkasi past daromadga ega aholi qatlami uchun soliq yukining ortishi bo'yicha xulosalar tizimlashtirilgan. Haqiqatda minimal ish haqi kesimidagi daromadlar intervali bo'yicha soliq to'lovchilar jami soliq to'lovchilar tarkibida asosiy salmoqni tashkil qilishini XVJ ekspertlari ham tasdiqlashgan. Quyidagi 3-rasmdan ham ko'rish mumkinki, 2018 yilda 1-3 minimal ish haqi intervalidagi daromadlar jami aholi daromadlarining qariyb 18 foizini tashkil qilib, 3-4 minimal ish haqidagi daromadlar bilan qo'shib hisoblanganda, jami daromadlarning qariyb 25 foizini tashkil qilayotganligini ko'rishimiz mumkin.

Tekis shkalaga asoslangan soliqqa tortish tizimi sharoitida daromadlar intervalidagi soliq yukining solishtirma tahlillari shuni tasdiqlaydiki, kam daromad oluvchi aholi qatlami va yuqori daromad oluvchi aholi uchun soliq yukining nisbatan teng taqsimlanishi kuzatiladi. Tahlillar ko'rsatmoqdaki, daromadning 8-9 minimal ish haqi intervalida progressiv va tekis shkaladagi soliq yukining nisbatan tenglashuvi kuzatiladi.

Boshqacha aytganda, tekis soliqqa tortish tizimining joriy qilinishi natijasida markaziy stavkaning 12 foiz qilib belgilanishi past darajada daromad oluvchi aholi zimmasidagi soliq yukining ortishiga va yuqori daromad oluvchi ahli zimmasidagi soliq yukining pasayishini ta'minlaydi.

Demak, yuqoridagi holatda daromadlarning turli darajalarida soliq yukining nisbatan teng taqsimlanishi hisobiga daromadlar o'rtasida tafovutning kuchayishiga soliq tizimining ta'sirini vujudga keltiradi.

Buni keyingi yillarda aholi daromadlari va ularning turli guruhlarini bo'yicha taqsimlanishiga oid navbatdagi statistik ma'lumotlarda ko'rishimiz mumkin.

2-jadval

O'zbekiston Respublikasi aholisi daromadlarining aholining 20 foizli guruhlarini bo'yicha notekis taqsimlanishi⁴³

| Kvintil guruhlarini | 2018 | 2019 | 2020 | 2021 | 2022 |
|---|--------------|--------------|--------------|--------------|--------------|
| I | 9,3 | 9,1 | 8,5 | 8,4 | 8,6 |
| II | 13,6 | 13,6 | 13,3 | 13,4 | 13,1 |
| III | 17,2 | 17,4 | 17,2 | 17,5 | 16,8 |
| IV | 22,0 | 22,6 | 22,6 | 23,0 | 22,0 |
| V | 37,8 | 37,3 | 38,3 | 37,6 | 39,5 |
| Aholi daromadlarining kvintil guruhlarini bo'yicha tabaqalanish koeffitsiyenti | 4,065 | 4,099 | 4,506 | 4,476 | 4,604 |

2-jadval ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkinki, 2019 yildan tekis shkalaga asoslangan jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortish tizimining joriy qilinishi bilan parallel ravishda aholi daromadlarining kvintil guruhlarini bo'yicha tabaqalanish koeffitsiyenti 2020 yilda 4,506, 2021 yilda 4,476, 2022 yilda esa 4,604 ni tashkil qilib, 2018-2022 yillarga nisbatan yuqori ko'rsatkichni tashkil qilmoqda. Demak, aholi daromadlari o'rtasida tabaqalanish darajasi yuqori bo'lmoqda. Buni aholining 10 foizlik guruhi bo'yicha daromadlarini turkumlash orqali aholi daromadlilik ko'rsatkichini solishtirma tahlillaridan ham ko'rishimiz mumkin.

3-jadval

O'zbekiston Respublikasi aholisi daromadlarining aholining 10 foizli guruhlarini bo'yicha notekis taqsimlanishi⁴⁴

| Desil guruhlarini | 2018 | 2019 | 2020 | 2021 | 2022 |
|--|------------|------------|------------|------------|------------|
| I desil | 3,9 | 3,7 | 3,4 | 3,3 | 3,5 |
| II desil | 5,4 | 5,3 | 5,1 | 5,1 | 5,1 |
| III desil | 6,4 | 6,4 | 6,2 | 6,2 | 6,1 |
| IV desil | 7,3 | 7,3 | 7,1 | 7,2 | 7,0 |
| V desil | 8,1 | 8,2 | 8,1 | 8,2 | 7,9 |
| VI desil | 9,1 | 9,2 | 9,1 | 9,3 | 8,9 |
| VII desil | 10,3 | 10,5 | 10,5 | 10,6 | 10,2 |
| VIII desil | 11,7 | 12,1 | 12,1 | 12,5 | 11,9 |
| IX desil | 14,1 | 14,7 | 14,8 | 15,2 | 14,7 |
| X desil | 23,7 | 22,6 | 23,5 | 22,5 | 24,8 |
| Aholi daromadlarining 10% li guruhlarini bo'yicha tabaqalanish koeffitsiyenti | 6,1 | 6,0 | 6,9 | 6,8 | 7,0 |

Ushbu 3-jadval ma'lumotlaridan ham ko'rishimiz mumkin aholi daromadlarining desil guruhlarini bo'yicha tabaqalanish koeffitsiyenti 2018 yilda 6,1 ni tashkil etgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich 2022 yilga kelib 7,0 ni tashkil etmoqda.

Garchi, aholi daromadlari darajasi ularning iste'mol va jamg'arish ishtiyoqlariga ta'sir etib, daromadlilik darajasining ortib borishi jamg'arish orqali investision faoliyatga chegaraviy moyillikning ortishiga ham ta'sir etadi. Demak, tabiiy ravishda soliqlar aholi daromadlarining nominal qiymatiga ta'sir etibgina qolmasdan, uning real qiymati orqali ifodalangan xarid qobiliyati paritetiga ta'sir etish orqali uy xo'jaliklarining iste'mol va jamg'arish normasiga ham ta'sir etadi.

⁴³ ЎзРДСҚ расмий сайти маълумотлари (www.stat.uz).

⁴⁴ ЎзРДСҚ маълумотлари асосида муаллиф томонидан шакллантирилган.

Bu, o'z navbatida, soliq tizimi orqali uy xo'jaliklarining iste'mol va jamg'arish me'yorlariga ta'sir etish orqali mamlakat iqtisodiyotining joriy va itiqbolda rivojlanishini tartibga solish imkoniyatlarini ham yaratadi.

4-jadval

Tekis shkala va progressiv soliqqa tortish tizimining aholi iste'mol va jamg'arish fondlariga ta'sirining solishtirma tahlili⁴⁵

| JSHODS muqobil variantlari | | | | | | | | |
|---|--|-------------|--------------|-------------------|--------------------------------------|-------------|--------------|-------------------|
| Shkala turlari | Progressiv (2018 yilgi ma'lumotlar asosidagi statistika) | | | | Tekis shkala (2021 yilgi statistika) | | | |
| | 1 MIH | 5 MIH gacha | 10 MIH gacha | 10 MIH dan yuqori | 1 MIH | 5 MIH gacha | 10 MIH gacha | 10 MIH dan yuqori |
| Stavkalar, % | 0 | 7,5 | 16,5 | 22,5 | 12 | | | |
| Jami to'langan soliqdagi daromad intervali ulushi, %da | - | 38,7 | 41,9 | 18,4 | 17,6 | 42,8 | 23,1 | 16,3 |
| O'rtacha marjinal stavka, %da | 9,6 | | | | 12 | | | |
| Soliq to'langandan keyingi shaxsiy tasarrufidagi daromadning sarflanishi bo'yicha aholi xarajatlarining tarkibi, foizda | | | | | | | | |
| Iste'mol, (C) | 100 | 100 | 68,91 | 64,81 | 100 | 100 | 61,32 | 43,64 |
| Jamg'arish (S) | - | - | 21,86 | 19,37 | - | - | 12,37 | 14,51 |
| Investisiyalar (I) | - | - | 9,23 | 15,82 | - | - | 26,31 | 41,85 |
| Daromad solig'i tekis shkalasini joriy qilishning aholi iste'mol va jamg'arish fondlari nisbatiga ta'siri | | | | | | | | |
| Iste'mol, (C) | | | | | - | - | -7,59 | -21,17 |
| Jamg'arish (S) | | | | | - | - | -9,49 | -4,86 |
| Investisiyalar (I) | | | | | - | - | +17,08 | +26,03 |

Yuqoridagi 4-jadvaldan ko'rish mumkinki, 2018 yilgacha bo'lgan soliqqa tortish tizimida (progressiv) daromad intervali kesimidagi soliq stavkalari asosida jami hisoblangan soliq summasiga nisbatan hisoblanadigan marjinal soliq stavkasi 9,6 foizni tashkil qilgan. Tekis shkalaga asoslangan soliqqa tortish tizimida esa 12 foizlik stavkada soliqqa tortish tizimi amal qilib, birinchi (1 MIH) va ikkinchi (5 MIH gacha) intervaldagi daromadlar, asosan, iste'mol ehtiyojlarini sarflash uchun iste'mol byudjetini shakllantirishga sarflanib, har ikkala soliqqa tortish tizimida ham o'zgarmaydi. Uchinchi va to'rtinchi interval bo'yicha shakllanadigan shaxsiy tasarrufidagi daromadlar iste'mol va jamg'arish nisbatlarida o'zgarish kuzatilib, jamg'arishning maqsadli yo'nalishini o'zida mujassamlashtiruvchi investision ishtiyoqning (+17,08; +26,03) ortib borganligini ko'rishimiz mumkin.

Xulosa va takliflar.

Yuqoridagi holatlar daromad solig'i bo'yicha quyidagi xulosalarni tizimlashtirishi mumkin:

Birinchidan, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i byudjet daromadlarini shakllantirishda asosiy fiskal faktor rolini o'ynovchi soliq hisoblanib, aholi daromadlariga ham yuqori darajada ta'sir etuvchi soliq hisoblanadi.

Ikkinchidan, ushbu soliq bo'yicha amalga oshirilgan progressiv soliqqa tortish tizimidan tekis shkalaga asoslangan soliqqa tortish tizimiga o'tilishi umumiy kontekstda soliq yukini pasaytirishga imkoniyat yaratishi zarur bo'lsada, daromad intervali bo'yicha past daromadga ega aholi uchun nisbatan yuqori soliq yukini ta'minlamoqda. Yuqori daromad intervalidagi daromad oluvchi aholi qatlami uchun esa soliq yukining qisqarishi kuzatilmoqda.

Ushbu holatlar jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i makroko'lamda aholining iste'mol xarajatlariga soliq tizimining ta'siri kuchayishiga olib kelgan.

⁴⁵ O'zRDSQ ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

Uchinchidan, makroiqtisodiy tartibga solish tizimining asosiy vositalaridan biri bo'lgan amaldagi jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortish tizimi mamlakatda yaratilgan aholi daromadlarining jamg'armalar sifatida to'planishi va investision faollikni rag'batlantirish xususiyatiga ega.

To'rtinchidan, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha daromad oluvchi aholining iste'mol xarajatlarini yaxshilash, ular zimmasidagi soliq yukini pasaytirish va pirovard natijada daromatlarni soliqqa tortishda ijtimoiy adolatlilik tamoyiliga rioya qilish maqsadida soliqqa tortilmaydigan minimumni joriy qilish maqsadga muvofiq.

Demak, umumiy xulosa sifatida ta'kidlash joizki, aholi daromadlarini soliqlar vositasida tartibga solish siyosati ular shaxsiy tasarrufidagi daromadlarning optimal ijtimoiy nafliligi sharoitida ($MU(I)=TU(I)$) daromadlarning tabaqalashuvi oldini olish, muvozanatlashtirish vazifasini bajarishi zarur.

Adabiyotlar/ Литература/Reference:

Acemoglu D. (2007) *An Introduction to Modern Economic Growth*. *Journal of Economic Theory*, Elsevier, vol., 147 (2), pages 45-550; Acemoglu D., Ticchi D. & Vindigni A. *Emergence and persistence of inefficient states*. *Journal of the European Economic Association*, 2011, 9 (2), 177-208.

Alesina A. and Rodrik D. (2020) *Distributive politics and economic growth*. *Quarterly Journal of Economics*, 1994, 109, 2, pp. 465-90; Perotti R. *Growth, (2020) Income Distribution, and Democracy: What the Data Say*. *Journal of Economic Growth*, 1996, 1 (2), 149 -187. Retrieved April 15, 2020, from: www.jstor.org/stable/40215914.

Galor O. and Tsiddon D. (2008) *Technological Progress, Mobility, and Economic Growth*. *The American Economic Review*, 1997, 87 (3), 363-382. Retrieved May 16, 2020, from www.jstor.org/stable/2951350; Foellmi R. and Oechslin M. *Why progressive redistribution can hurt the poor*. *Journal of Public Economics*, 2008, 92 (3-4), 738-747.

Isaev, F. (2021). Мол-мулкни солиққа тортишни такомиллаштириш. *Iqtisodiyot va Innovatsion Texnologiyalar*, (6), 326-333. Retrieved from https://inlibrary.uz/index.php/economics_and_innovative/article/view/12224

Jumaev Nadir Hosiyatovich, Rizaev Nurbek Kadirovich, & Isaev Fakhridin Ikromovich. (2023). *ORGANIZATION OF TURKIC STATES: INTEROPERATION AND ACCOUNTING SYSTEM*. *British Journal of Global Ecology and Sustainable Development*, 13, 116-129. Retrieved from <https://journalzone.org/index.php/bjgesd/article/view/245>

Piketty T. and Goldhammer A. (2015). *The Economics of Inequality*. Cambridge, Massachusetts; London, England: Harvard University Press. Retrieved May 16, 2020, from www.jstor.org/stable/j.ctvjnrnk.

Saez E. *Striking it Richer (2018). The Evolution of Top Incomes in the United States (Updated with 2018 estimates)*. Retrieved: March 25th, 2020. From: eml.berkeley.edu/~saez/saez-UStopincomes-.pdf.

Аззамов А.Т. (2019) Жисмоний шахсларни солиққа тортиш амалиётини такомиллаштириш. / Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Т., й.

Маршалл А. (1993) *Принципы экономической науки*. В 3 т. – М.: Инфра-М. – 217 с.

Ўринов В. (2018) Солиқ юки: даромадлар тенг, аммо // "XXI asr" ижтимоий-сиёсий газетаси. йил 24 май, 21 (759).